

XOTIN-QIZLARNING TADBIRKORLIK VA BIZNES FAOLIYATIGA KENG JALB QILISHNING ZAMONAVIY TENDETSIYALARI

Raximov Anvar Norimovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0009-2855-4084

E-mail: sanjar.8548@mail.ru

Ravshanova Iroda Maxmanazarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası

magistratura talabasi

E-mail: muhayyo.ravshanova@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarga munosabat masalasidagi davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan yangi tizimli islohotlar, bugungi kunda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish, ularning oila va jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirishda huquqiy savodxonlikni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollarning ahamiyatini oshirish masalalariga e‘tibor berilgan. Maqolada mamlakat rivojlanishining hozirgi bosqichida jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bandlik, ishsizlikning o‘shish tendensiyasi, aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlari, ayollarni bandlik sohasida ijtimoiy himoya qilish masalalari, ayollarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida ish bilan bandligi darajalarini statistik tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishsizlik, bandlik, iqtisodiy o‘shish, tendensiya, zamonaviy tendensiya.

Аннотация

В данной статье исследуются научно-методические основы оптимизации системы электронной коммерции в условиях инновационной экономики. В работе применены методы системного анализа, экономико-математического моделирования, и эмпирического подхода. Рассмотрено текущее состояние, проблемы и перспективы развития электронной коммерции в Узбекистане. В результате предложены направления оптимизации электронной коммерции — создание интегрированных цифровых платформ, внедрение искусственного интеллекта, использование анализа больших данных и цифровизация логистических цепей. Полученные результаты способствуют развитию теоретических основ электронной коммерции и устойчивому росту инновационной экономики.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, безработица, занятость, экономический рост, тенденция, современная тенденция

Abstract

The article focuses on the new systemic reforms being implemented within the framework of the state policy on the treatment of women in New Uzbekistan, the issues of increasing women's social activity today, improving their status in the family and society, legal literacy, and the importance of women in the development of small business and private entrepreneurship. The article analyzes the socio-economic problems of our society at the current stage of the country's development, including employment, the growing trend of unemployment, socially unprotected segments of the population, issues of social protection of women in the field of employment, and the level of employment of women in the fields of small business and private entrepreneurship.

Keywords: small business, private entrepreneurship, unemployment, employment, economic growth, trend, modern trend.

KIRISH

Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega. Bu bejiz emas. Sababi ayol—oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. So'nggi yillarda yurtimizda xotin- qizlarning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rnini va salohiyatini yuksaltirish, ularning jamiyat ma'naviy va madaniy hayotidagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani boisi ham shunda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora- tadbirlar to'g'risida"gi qaror, "Ayollarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlarining qabul qilinganligi ushbu mavzuni dolzarbligini bildiradi[1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar bandligini oshirish masalasi hozirgi davrda nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida talqin etilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, tahlillar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari mazkur mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga asos bo'ladi.

Normativ huquqiy asoslarga e'tibor qaratilsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 7martdagi PQ-131sonli qarori "2022–2026yillarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o'rnini oshirish strategiyasi" asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ayollarni tadbirkorlikka jalb etish, ularga moliyaviy yordam ko'rsatish, bandlik darajasini oshirish kabi choralarni belgilagan.

Ushbu qaror asosida “Ayollar daftari” mexanizmi, “Ayollar biznesi” dasturi, imtiyozli kreditlar va grantlar joriy etildi. Bu esa tadqiqotning amaliy jihatlariga asos yaratadi.[2]

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham ushbu mavzu bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari tomonidan tayyorlangan maqolalar va monografiyalarda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning tutgan o'рни, ayollarni o'qitish va kasbga yo'naltirishning samaradorlikka ta'siri, mehnat bozorida raqobatbardoshlik muammolari atroflicha yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan “Ayollar bandligini ta'minlashning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari” mavzusidagi tahliliy materialda ayollar bandligini cheklovchi institutsional muammolarga e'tibor qaratilgan[3].

Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) kabi xalqaro tashkilotlar ham ayollar bandligi va tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini yoritadi. Jahon bankining “Women, Business and the Law 2023” hisobotida ayollarning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlovchi qonunchilik asoslari tahlil qilinadi va O'zbekiston qator ijobiy o'zgarishlarga ega mamlakat sifatida qayd etilgan.[4]

Maqolada G'.A. Abdumajidov, ko'tarilgan muammo I.R. Astanov, huquqshunos D.B. Bazarova, olimlardan B.X. Pulatov, S.M. Rahmonovalarning ilmiy ishlarida qisman tahlil etilgan. Fuqaroviy tadbirkorlik bilan bo'liq masalalar esa, Z. Esanova, D. Karaxodjaeva, N. Imomov kabi olimlarning ilmiy ishlarida uchraydi. Biroq yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning bandligini ta'minlash bilan bog'liq metodologik va huquqiy jihatlar kompleks tahlil etilmagan.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tizimli yondashuv, komparativ tahlil usuli, matematik modellashtirish va optimallashtirish usuli hamda empirik tahlil usullaridan foydalanib, mavzuga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari, milliy strategiyalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil manbasi sifatida o'rganildi. Olingan natijalar asosida ayollar bandligini ta'minlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi barcha sohalarda, xususan, milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, investitsiyaviy jozibadorlikni mustahkamlash, kichik va o'rta biznesni xalqaro

standartlar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishida barcha dolzarb vazifalar singari xotin-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan 2022 yilda e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra «ayollar mehnat faoliyati davomida hali ham munosib ish uchun jiddiy to'siqlarga duch kelishmoqda [1]. Bugungi kunda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish va ularni bandligi ta'minlash masalalar, xususan sohaning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri sifatida yuzaga chiqmoqda.

Mazkur masalaga jahon hamjamiyatida alohida e'tibor qaratilib, aynan xotin-qizlarni keng tadbirkorlikka jalb qilish orqali davlat va jamiyatning rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining 50%ga yaqinini ayollar tashkil etib, ularning jahon yalpi ichki mahsuloti ulushidagi hissasi 40%ni tashkil etmoqda [2].

Jahon bankining prognozlariga ko'ra, bandlik sohasida gender tafovut bartaraf etilsa, uzoq istiqbolda mamlakatlarda aholi jon boshiga o'rtacha jahon yalpi ichki mahsulotini 20%ga oshirish mumkin bo'ladi hamda agar ayollar o'z bizneslarini erkaklar bilan bir xil sur'atlarda boshlasa va kengaytirsas, bu jahon iqtisodiyotiga qo'shimcha 6 trillion dollargacha qo'shilishi mumkin [3].

Bu borada xalqaro tashkilotlar, xususan BMT xam muhim rol o'ynamoqda. BMT Bosh Assambleyaning organi — savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNSTAD) ayollar biznesini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayollarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsadida UNSTAD qator mamlakatlarda xalqaro ta'lim dasturini amalga oshirib, uning doirasida xotin-qizlarning xalqaro tadbirkor bo'yicha malakasini oshirilmoqda [5].

Bunday faollik bilan ayollar milliy va jahon iqtisodiyotini rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shishi va ayollarimizni xalqaro darajada qo'llab quvvatlanishi ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, xususan, huquqiy asoslarini takomillashtirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qaysi jabhasiga qaramang hamma sohada ayollarimiz jonbozlik ko'rsatib faoliyat yuritmoqdalar. Masalan, 2024 yildagi jami band ayollar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishini o'rganadigan bo'lsak, eng yuqori sohalardagi band ayollarning 26.6 % qismi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik xo'jaligida, 13.6 % qismi sanoat sohasida, ta'lim sohasida 16.3 % qismi bandligi ko'rishimiz mumkin(1-jadval).

1 jadval
**Jami band ayollar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,
 jamiga nisbatan foizda¹**

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	26,3	26,3	27,8	27,3	27,1	25,9	26,6
Sanoat	12,7	13	13,7	14,3	14,3	14,2	13,6
Qurilish	1,2	1,2	1,3	1,5	1,5	1,5	1,4
Savdo	12,3	12,4	12,8	13,2	12,7	13,5	12,9
Tashish va saqlash	0,8	0,8	1,0	0,8	0,8	0,8	0,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2,7	2,7	2,8	2,9	2,9	3,1	3,1
Axborot va aloqa	0,3	0,3	0,3	0,4	0,4	0,4	0,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	0,4	0,4	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
Ta'lim	13,8	13,5	13,6	15,3	15,8	16,1	16,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7,6	7,5	8,7	8,4	9,3	9,0	9,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
Boshqa faoliyat turlari	21,4	21,4	17,0	14,9	14,2	14,4	14,6

Aholining bandligini ta'minlashga ko'maklashishga qaratilgan hududiy va shahar dasturlarini ishlab chiqishda hisobga olingan holda, bandlik sohasida ayollarni ijtimoiy himoya qilish muammolari qonunchilik darajasida hal etilishi kerak. Ayollarni ish bilan ta'minlash muammolari demografik muammolarni hal qilish, yosh avlodni tarbiyalash, mehnat faoliyati sohasidagi gender tengligini ta'minlash bilan bog'liq.

Reproduktiv yoshdagi ayollar kamroq ish bilan ta'minlangan, bu yosh toifasidagi ayollarning ish bilan ta'minlanmasligiga bolalarning tug'ilishi va tarbiyasi sabab bo'ladi. Keksa ayollarning ishsizligining sababi erta pensiyaga chiqish, kasbiy kasalliklar, pensiyaga chiqish yoshiga qadar ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlayotgan ayollarning bilim darajasi erkaklarnikiga nisbatan yuqori. Bundan tashqari, ayollar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

bandligi sohasi tobora ko'proq ikkinchi darajali, yordamchi mehnat turlariga aylanib bormoqda. Ta'kidlash joizki, xotin-qizlar o'rtasidagi ishsizlik darajasining yuqori bo'lishiga ularning mehnat faoliyatiga yuqori darajada jalb etilgani ta'sir ko'rsatmoqda.

O'z-o'zini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish munitsipal bandlik dasturlarining yo'nalishlaridan biridir. Bandlik xizmati organlari o'z biznesini tashkil etish istagida bo'lgan fuqarolarni keyinchalik qo'llab-quvvatlagan holda kasbga o'qitish bo'yicha ishlarni tashkil etishlari shart. Lekin o'zini-o'zi bandligini ta'minlash, ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish zarur. Kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish istiqbollari ularning texnik jihozlanishi, ilg'or texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Ta'kidlash joizki, ayollarning o'z-o'zini bandligini rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasanachilikni, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;
- soliqlar, binolar ijarasi, xom ashyo va sotish bo'yicha iqtisodiy masalalarni hal qilish;
- o'z-o'zini ish bilan ta'minlash shakllari va yo'nalishlarini tanlash va belgilash, zarur bilimlarni olishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish;
- mehnatga qadriyat munosabatini o'zgartirish, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash. Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun jamoat va davlat tuzilmalarining sa'y harakatlarini birlashtirish, xotin-qizlarning o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash muammolarini ilmiy amaliy rivojlantirish, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga ko'maklashish zarur. Ishsiz ayollar orasida

Bu borada keyingi yillarda mamlakatimizda qator aniq natijalarga erishildi.

Birinchidan, xotin-qizlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash sohasida xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. So'ngi yillarda sohaga oid 40 dan ortiq qonunchilik hujjatlari va muhim konseptual hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar doirasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnining mustahkamlanishi, ularning ta'lim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi, bandligini ta'minlash va kasb-hunarga o'qitish hamda ayollarning iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barcha sohalarda erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida 2030 yilgacha O'zbekistonda gender tengligiga erishish Strategiyasi tasdiqlandi. Yagona yondashuv asosida vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oliy Majlis Senati qoshida

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi.

Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradigan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida xotin-qizlar ulushi boshqaruv sohalarida 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga oshdi. Xotin-qizlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 2017 yilga nisbatan 5 barobarga ortdi.

Ta'lim va ilmni mustahkamlash yo'nalishida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratildi, yangi kvotalar, grantlar ajratildi, magistraturada o'qish istagi bo'lgan ayollar uchun to'lovlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan amaliyot joriy etildi.

Xususan, har yili muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarni oliy ta'limdagi, shuningdek, magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab berish tizimi joriy etildi, xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun (7 yil muddatga) foizsiz ta'lim kreditlari ajratilishi, doktoranturaga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilishi yo'lga qo'yildi. Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjetidan har yili 2 trln so'm mablag' yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, bandlikni ta'minlash va kasb-hunarga o'qitish borasida davlat tomonidan ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar, kreditlar ajratilmoqda, yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada respublika hududlarida, chekka mahalla va qishloqlarda Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilib, unlarda xotin-qizlar o'qitilmoqda.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatining barqarorligi ta'minlanmoqda.

Ayollarimiz iqtisodiyotning barcha asosiy «drayver»larida– u sanoat bo'ladimi, qishloq xo'jaligimi, kichik biznesmi, oilaviy tadbirkorlikmi, xizmat ko'rsatishmi, barcha-barchasida o'zlarining muhim hissalarini qo'shib kelmoqda. Buning evaziga bugungi kunda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida ayollarning ulushi 46 foizni tashkil etmoqda. Agar 2017 yilda xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 21 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda- 37 foizni tashkil qilmoqda [6].

Birgina 2022 yilda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 95 mingdan ortiq xotin-qizlar tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazildi va bugungi kunga qadar ushbu tadbirkor xotin-qizlar tomonidan 184 mingga yaqin yangi ish o'rin yaratildi. So'nggi 5 yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. 2023 yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihalariga 13 trillion so'mdan ortiq kredit,

qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so'm subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Eng asosiysi – 400 mingdan ortiq xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi [4].

Uchinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik qilish borasidagi taklif va tashabbuslarini amalga oshirishda ro'y berishi mumkin bo'lgan turli byurokratik va boshqa turdagi to'siqlar va kamchiliklar ustida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Bunda vaqtincha ishsiz, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og'ir, muhtoj yolg'iz ayollar va boquvchisini yo'qotgan qizlarni yanada qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy hayotda faol ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratildi, ularning tadbirkorlikka bo'lgan tashabbuslarini amalga oshirish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida turli imtiyozlar, kredit va subsidiyalar ajratildi.

E'tibor beradigan bo'lsak, 2020-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan «Ayollar daftari» tizimi orqali qariyb 2,5 milliondan ortiq xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berish uchun 5,1 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi.

Natijada xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi daromadlari oshdi va ularning bandligi ta'minlandi. mustahkamlandi, Bu yerda yana bir muhim jihat bor, ya'ni sohada siyosatimizning muhim nuqtasi – xotin-qizlar ijtimoiy huquqlarini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishdir. Birgina qishloq xo'jaligining turli sohalarida 1,5 mln dan ortiq xotin-qizlar mehnat qiladi, qishloq ayollari faolligi bilan hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida alohida hissa qo'shadi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida manzilli ishlash tizimi joriy etildi. Asosiy e'tibor ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlarning jamiyat va iqtisodiy hayotda faolligini oshirishga qaratildi. Birgina Ayollar daftari orqali so'nggi yillarda millionlab xotin-qizlarga ko'mak berildi.

2023 yilning o'zida “Ayollar daftari” bo'yicha 1 trillion 234 milliard so'm hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki davlat tomonidan amalga oshirilayotgan imtiyozli kreditlar, kasb-hunar kurslari va biznes inkubatorlari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga katta yordam bermoqda. Kelajakda raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish, gender tengligini ta'minlash, ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish orqali xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini yanada oshirish mumkin. Shu bilan birga, ayollarni qo'lla-quvvatlovchi kompleks davlat siyosati va innovatsion yondashuvlar

ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi barqaror ishtirokini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega

1. Bugungi kunda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimining normativ huquqiy bazasini xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish ishlarini davom ettirish, gender ekspertizasidan samarali foydalangan holda xotin qizlar uchun imkoniyat va kafolatlarni yanada kengaytirish, iqtisodiy tazyiqlarning oldini olishga oid normalar tatbiq etish muhim hisoblanadi.

2. Gender tengligini ta'minlashga oila turli stereotiplarning oldini olish, unga oid huquqiy me'yorlarni aholi orasida keng targ'ib qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

3. Xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga, ayniqsa, axborot texnologiyalari, dasturlash, onlayn tijorat qilish sohalarida o'qitish, ushbu sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratish masalalariga e'tibor qaratish.

4. Qishloq joylaridagi ayollarining yashash prinsiplari va tajribalarini inobatga olgan holda, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish muhim hisoblanadi.

5. Xotin-qizlarning munosib ish bilan bandligini tashkil qilish yondashuvlarini takomillashtirish, bu borada milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish – doimo e'tiborimiz markazida [Creating decent conditions for the women of our country is always in the center of our attention]. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev at the ceremony dedicated to the International Women's 2023, March

2. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/60137>. Yangi O'zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish—eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi [Our most important task will be to create decent conditions for our women as well as all our people in the new Uzbekistan]. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev at the ceremony dedicated to the International Women's Day. 2024, March 7.

3. Experiences of violence and harassment at work: A global first survey, 2022. International Labour Organization and Lloyd's Register Foundation. Available at: https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/dgreports/dcomm/documents/publication/wcms_863095.pdf

4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). (2022). Gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha hisobot. Jeneva.

5. Issues in the field of gender. Available at: <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/topic/gender/overview>

6. Abdurahmonov X., Zokirov Sh. Xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha horij tajribasi [Foreign experience in supporting women's entrepreneurship and business activities]. Research Institute «Neighborhood and Family» under the Ministry of Neighborhood and Family Support of the Republic of Uzbekistan. Scientific Progress, 2022, vol. 3, iss.

7. Равшанова М.М. (2021). Эконометрикадаги математик усуллар ижтимоий-иқтисодий тизимларни таҳлил қилиш ва тадқиқ қилиш воситаси сифатида. Экономика и социум, (5-2 (84)), 1036-1038.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>